JIYDAKAPA – TADBIRKORLIK, HUNARMANDCHILIK VA YOSHLAR TASHABBUSLARI MASKANI

Fazliddinov Jaloliddin Shuxrat o'g'li
Namangan viloyati Uychi tumani Jiydakapa MFY Yoshlar yetakchisi.

https://doi.org/10.5281/zenodo.24405051

Bugungi kunda mamlakatimizda mahallalarni rivojlantirish, yoshlar bandligini ta'minlash, tadbirkorlik va hunarmandchilikni qo'llab-quvvatlash orqali aholi farovonligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ana shunday imkoniyatlardan unumli foydalanib, o'zining tadbirkorlik salohiyati, mehnatsevar aholisi va ishlab chiqarish tajribasi bilan ajralib turadigan mahallalardan biri – Namangan viloyati Uychi tumani Jiydakapa mahallasidir.

Jiydakapa – temirga ishlov berish rivojlangan tadbirkorlik maskani

Jiydakapa mahallasida tadbirkorlik faoliyati, ayniqsa, metallga ishlov berish va undan turli mahsulotlar ishlab chiqarish yo'nalishida keng rivojlangan.

Mahalladagi ustalar tomonidan zamonaviy va milliy uslublarni uyg'unlashtirgan holda turli metall buyumlar tayyorlanmoqda. Jumladan, xonadonlar uchun mustahkam va bejirim temir darvozalar, zinapoyalar uchun nafis perillalar, yo'l chetlari va turli hududlarni obodonlashtirish uchun metall panjaralar, shuningdek, xonadonlar va dam olish maskanlariga mo'ljallangan temirdan yasalgan yozgi ayvonlar ishlab chiqarilmoqda.

Bu faoliyat nafaqat mahalla iqtisodiyotiga hissa qo'shmoqda, balki yangi ish o'rinlari yaratilishi, yoshlarning kasb-hunar egallashi va o'z tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishi uchun ham muhim imkoniyat yaratmoqda.

Eng muhimi, mahallada shakllangan ushbu ishlab chiqarish tajribasi yoshlar uchun tayyor amaliy maktab vazifasini o'tamoqda. Ular tajribali ustalar faoliyati bilan tanishib, metallga ishlov berish sirlarini o'rganish, zamonaviy uskunalardan foydalanish va kelajakda mustaqil tadbirkor bo'lish imkoniyatiga ega.

Yoshlar – mahalla taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi

Jiydakapa mahallasida mavjud tadbirkorlik tajribasini yoshlar orasida keng targ'ib qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, yoshlarni mahalladagi ishlab chiqarish korxonalari va ustaxonalar faoliyati bilan tanishtirish, kasb-hunarga qiziqtirish, ustoz-shogird an'analarini rivojlantirish hamda tadbirkorlikka yo'naltirish orqali ularning bandligini ta'minlashga xizmat qiladigan imkoniyatlar mavjud.

Zero, yoshlar uchun eng yaxshi namuna – bu o'z mehnati bilan muvaffaqiyatga erishgan, halol daromad topayotgan va boshqalarga ish o'rni yaratayotgan tadbirkorlardir.

Maqsad – tajribani ommalashtirish va yangi imkoniyatlar yaratish

Jiydakapa mahallasining metallga ishlov berish sohasidagi tajribasini boshqa mahallalar yoshlari orasida ham targ'ib qilish, ushbu yo'nalishga qiziqqan yoshlarni kasbga o'rgatish va tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish istiqbolli vazifalardan biridir.

Jiydakapa mahalla yoshlarining o'ziga xos tadbirkorlik tajribasini namoyon etish, yoshlar uchun yangi marralar sari yo'l ochish va boshqa mahallalar uchun ham amaliy namuna yaratish mumkin.

Jiydakapa tajribasi shuni ko'rsatadiki, mahallaning boyligi faqat uning hududi yoki infratuzilmasida emas, balki mehnatkash insonlari, tadbirkor yoshlari va yaratuvchanlik salohiyatidadir!

Yoshlar bandligi, tadbirkorlik rivoji va mahallalar taraqqiyoti!

Jiydakapa mahallasida yoshlar tomonidan yo‘lga qo‘yilgan metallga ishlov berish va mahsulot ishlab chiqarish faoliyati bugungi kunda mahalla doirasidan ancha keng hududlarni qamrab olgan.

Ayniqsa, mahallada ishlab chiqarilayotgan zamonaviy dizayndagi temir darvozalar xaridorlar e’tiborini qozonib, nafaqat Namangan viloyati, balki respublikamizning barcha viloyatlariga yetkazib berilmoqda.

Quvonarlisi, ushbu mahsulotlarga qo‘shni respublikalarda ham talab mavjud bo‘lib, tayyor mahsulotlar eksport qilinmoqda.

Bu esa Jiydakapa yosh tadbirkorlarining mehnati, mahorati va ishlab chiqarish salohiyati xalqaro bozorda ham o‘z natijasini berayotganidan dalolatdir.

Bir qarashda oddiy temir darvoza bo‘lib ko‘ringan mahsulot ortida yoshlarning izlanishi, zamonaviy dizaynga intilishi, tinimsiz mehnati va tadbirkorlik tashabbusi mujassam.

Eng muhimi, Jiydakapa yoshlari o‘zlari yashab turgan mahallada faoliyat yuritib, mahsulotlarini uzoq hududlarga yetkazish orqali mahalla nomini ham keng tanitmoqda.

Jiydakapa – yoshlar faqat kelajak bunyodkorlari emas, bugunning o‘zida ham ishlab chiqarayotgan, eksport qilayotgan va yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratayotgan kuch ekanining yorqin namunasidir!